

OTA-ONA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI HAL ETISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Po'latova Nazira Meliyevna, katta o'qituvchi
Yo'ldosheva Gulmira Baxriddin qizi, 2-bosqich magistiri
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada shaxs kamoloti uchun muhim bo'lgan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash kabi shaxs sifatlari o'rganilgan. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlash bilan birga, ota-onalarda o'ziga xos xususiyatlari shuningdek, oilada boshqaruv va farzand tarbiyasi borasidagi qomusiy olimlar qarashlari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, shaxs kamoloti, xulq-atvor, iroda, xarakter, dunyoqarash, psixologik, fiziologik, falsafiy, oila, aqliy, ruhiy, jinsiy, axloqiy, estetik, diniy tarbiya.

Har qanday jamiyatning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi. Shaxsning aqliy o'sishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila asosiy rolni bajaradi. Taniqli tadqiqotchi olimlar U.Jems, Ch.Kuli, U.Tomas, F.Znanetskiy, J.Piaje, Z.Freyd kabilar oilaning davrasida ro'y beradigan shaxslararo munosabatlarning xarakteriga alohida e'tibor berishib, bir shaxsning boshqa bir shaxs ta'sirida qanday qilib, o'z sifatlarini takomillashtirishi, o'zgartirishi, tarbiyalanishi kabi qator masalalarni o'rgandilar. Natijada, bu borada olib borilajak ilmiy izlanishlarning naqadar muhimligi o'z navbatida jamoatchilikning diqqat-e'tiborini tortdi. Olimlar oila borasida o'tkaziladigan tadqiqotlar va unda qo'llaniladigan usullarning noyobligini ta'kidlashib, oila tadqiqotlarida rioya etilishi zarur bo'lgan odob normalari haqida ham fikr yuritganlar.

Oilaviy muammolar yechimini o'rganish borasida respublikamiz psixolog olimlari tomonidan bir qator diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Jumladan, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, X.K.Karimov, Sh.Sh.Jo'rayeva, F.A.Akromova, R.M.Abdullayeva, Yo.No'monova, M.O.Utepbergenov, R.A.Samarov, T.Norimbetov kabi olimlarimiz va ularning izdoshlari tomonidan so'nggi yillar davomida o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy rollar taqsimoti, oilalardagi shaxslararo munosabatlar hamda oilaviy muammolar kabi masalalar o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar respublikamizda oilani ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan tadqiq etish bo'yicha ma'lum bir o'ziga xos an'analarning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirda bu masalaga e'tiborning ortib borayotganligi o'zbek psixolog olimlari oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab muammolarni qo'yimoqda. Bu borada Respublikamiz psixolog olimlaridan: M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziev, B.R. Qodirov, V.M. Karimova, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, T.M.Adizova, R.I.Sunnatova,

E.N.Sattarov, N.A.Sog'inov, Sh.A.Do'stmuhamedova, Z.T.Nishonova, F.A.Akramova, Sh.Sh.Jo'raeva, M.Utepbergenov, R.A.Samarov va boshqalarning ishlari eotiborga loyiqdir.

Oila muammolarini tadqiq etishga qaratilgan bir qator ishlarning mavjudligiga qaramasdan, bevosita o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarini psixologik nuqtai nazardan o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotishlari etarlicha olib borilmagan.

Boshqa xalqlarda ham o'ziga xos an'analar mavjud bo'lgan. Masalan, qadimgi Xitoyda nikoh ajrimiga olib keladigan sabablarga erning ota-onasi ra'yiga qaramaslik, Nizoli oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish ularga kelinning gap qaytarishi, betga choparlik, bepushtlik, mahmadonalik, bedavo xastalik, rashk kabilar kirgan. Yuqoridagi holatlar bo'lsayu, ayol erining ota-onasiga aza tutayotgan bo'lsa yoki u chin yetim bo'lsa, eri uni baribir uydan haydab yubora olmagan.

Qadimgi Gretsiyada esa nikoh ajrimini sodir etish ancha yengil bo'lgan. Er guvohlar oldida xotiniga u bilan ortiq yashay olmasligini, nikohi buzilganligini aytgan, ayol barcha sarpo-suruqlarini yig'ishtirib, o'z ota-onasining oilasiga qaytib ketavergan. Sarpo-suruqlar, ayolga tegishli barcha narsalarning unga berilishi majbur hisoblangan, hattoki ajrimning sababi ayolning xiyonati bo'lgan taqdirda ham mol-mulk, ziynatlar ayolga berilavergan. Lekin ayol eri bilan yashashni xohlamay qolgan holatlarda uning ajrim olishi mushkulroq bo'lgan, bunday paytlarda xotin shahar xokimiga yozma ravishda rasmiy murojaat qilishi va ular qaror qabul qilishi lozim bo'lgan. Bunday hollarda kim aybdor deb topilishidan qat'iy nazar, bolalar otasi bilan qoldirilgan.

Rimliklarda ham ajrimlarga ilgaridan odatiy holday qaralgan. Tarixdan ma'lumki, shoir Ovidiy va tarixchi Pliniy uch marta uylanganlar, Yuliy Sezar va Antoniy esa to'rttadan xotingga ega bo'lganlar. Bu kabi tarixiy hodisalar manbalarda, tarixiy filmlarda yaxshi aks ettirilgan. Qadimgi Hindistonda esa nikoh oddiygina fuqarolar ittifoqi emas, ilohiy ittifoq sifatida qaralib, nikoh rishtalarining buzilishi nihoyatda g'ayritabiiy holat deb baholangan. Nikohning buzilishi faqat er tashabbusi va ayolning katta gunohi tufayli ro'y berishi mumkin bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan ikki ming yilliklardan qolgan manbalarda ko'rsatilishicha, "sakkiz yil mobaynida bola tug'magan ayol boshqasiga almashtirilishi mumkin, o'lik bola tuqqan – o'ninchi yili, faqat qiz bolalarni tug'adigani – o'n birinchi yili, urushqoq, beadabi esa o'sha zahoti er tomonidan qo'yib yuborilishi mumkin" bo'lgan. Keyinchalik hindlar ham ajrimlar siyosatini qayta ko'rib chiqib, endi nikoh quyidagi holatlarda ham barbod bo'lishi qayd etilgan: agar ayol erining barcha boyliklarini isrof qilish, no'rin ishlatgan bo'lsa, abort yo'li bilan farzandini yo'qotgan bo'lsa va erining hayotiga suiqasd qilgan bo'lsa. Ayol esa faqat ikki holatda eridan ajrim talab qilish huquqiga ega bo'lgan: eri bepusht bo'lib, o'z erlik vazifasini bajara olmay qolgan bo'lsa va sodir etgan gunohi uchun uni qavmdan chiqarib yuborilgan bo'lsa. Shunga o'xshash nikohning barbod bo'lishi shakllari ham, uning motivlari ham turfa xil. Ko'pgina xalqlarda ajrimlarning motivi sifatida er-xotin xiyonati qayd etiladi.

Oiladagi nizolarni hal qilish usullari asosan jamiyatning muayyan hujayrasi doirasida qanday janjal yuzaga kelganiga bog'liq. Ota-ona munosabatlari va nikoh tushunchalari bolalarda bo'lgan oiladagi nizolar juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki kishining fikrlari yoki istaklari bilan to'qnashganda, natijada ular umumiy yo'nalishni topishni istashganida, oiladagi nizolarni tabiiy jarayon deb biladi. Inson bolalikdan bahs-munozaralar, nizolar ichida o'sib ulg'ayadi. O'zbek jamiyatida nizolar, odatda, oilaviy qoidalar, an'ana va udumlar vositasida boshqariladi.

Bolalar aksariyat hollarda oiladagi kattalarning gapidan chiqmaslikka harakat qilishadi. Ayni vaqtda bolalar-ning ijtimoiylashuvi jarayonida son-sanoqsiz savollar paydo bo'la boshlaydi va ularga hamisha ham oilada javob topilavermaydi va ko'pincha o'zlarida tug'iladigan savol-larni ota-onalarga berishga jazm qilmaydilar. Buning sababi o'zbek oilalarida tarbiya masalasi diniy tarbiya bilan chambarchas bog'lanib ketganligi tufayli ko'pincha bolalar bilan u yoki bu tarbiyaviy masala muhokama qilinmaydi.

Umuman, bola bilan ota-ona o'rtasidagi tarbiyaviy masalalar bugungi kundagi ijtimoiy taraqqiyotga mos ravishda talqin etilishi maqsadga muvofiq.

Yoshlar bilan bog'liq muammolar haqida gapirganda nizolarga alohida to'xtalish lozim. Zero, aynan bolalik va o'smirlik davrida bo'lib o'tgan voqea-hodisalar insonning shaxsiyatini shakllantiradi va bir umr u bilan hamrohlik qiladi. Yoshlar bilan bog'liq shunday muammolar borki, ular aynan o'smirlik va bolalik davrida tarbiyada yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar, bolalar bilan izchil mulqot o'rnatmasdan an'anaviy tarbiya usullaridan ko'r-ko'rona foydalanish oqibatida kelib chiqadi. Ustiga ustak, bolalar bog'chasi, o'rta maktablarda tarbiyada yo'l qo'yiladigan xatolar ham oiladagi xatolarning davomi tarzida bolalarning shaxsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qiluvchi mutaxassislar bilishlari shart bo'lgan muammolardan biri oiladagi avlodlar o'rtasidagi nizolardir.

Har bir oilada vaqti-vaqti bilan nizolar chiqib turadi. Ularni hech bir oila chetlab o'ta olmaydi. Ko'pincha nizolar mayda-chuyda gap so'zlar bilan tugab ketsada, aslida hal etilmagan muammolar asta-sekin to'planib ehtirosli urush-janjallargacha borib yetadi. Ayni vaziyatda, uyda bolalarning ehtirosi kuchayib ketishi kuzatiladi va ular qaysarlik qilib, oila a'zolarining asabiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada "tomosha" ko'rsatishlari mumkin.

Oiladagi bunday jarayon deyarli hamisha muhokama qilinadi. Chunki oilaviy munosabatlar va nizolar butun dunyoni qamrab olgan muammo hisoblanadi. Oilaviy nizolar odatda: bir-birini tinglamaslik, ya'ni bir-birining istaklarini eshitmaslik, hayotga bo'lgan qarashlarning farqla-nishi, o'ta qattiq nazorat; ta'bi ustidan kulish, e'tibor yetishmasligi, ish faoliyatidagi muammolar tufayli yuzaga keladi.

Oilaviy nizoni anglash, aniqrog'i, bolalar va ota-onalar, oila a'zolari o'rtasidagi nizoli holatlarga barham berish uchun yuqorida qayd etilgan har bir vaziyatni bir-ma-bir ko'rib chiqish zarur.

Nizoli vaziyatda taraflar o'zlarining haq ekanliklarini ovozini balandlatgan holda isbotlashga urini-shadi. Shu tarzda aslo bir-birini eshitmasdan ovozi bo-richa baqirib, bir-birini "o'chirish"ga harakat qilishadi.

Bunday holatda taraflar o'zini bosib olgan holda, aqlni ishga solishlari muhim.

Birinchi qoida – shu. Taraflar irodani qo'lga olib, galma-galdan bir-birlarini eshitishlari kerak bo'ladi.

Bu holatda ular oxirigacha eshitmasdan, bir-birining so'zini bo'lishi vaziyatning yanada chigallashuviga olib keladi. Ota-onalar o'smirlarga soat sakkizgacha ruxsat berishsa, bolalar albatta soat o'n birgacha ko'chada bo'lishni istashadi. Bolalar turli taqinchoqlar, sirg'alar, g'ayriodatiy soch turmaklar, tatuirovkalarni san'at deya qabul qilishsa, ota-onalar uchun bu narsalar faqat tarbiyasizlikning ifodasidir. Vaqt o'tishi bilan hammaning ta'bi va qiziqishlari o'zgara boradi. Ota-onalar istar-istamas bolalarining qi-ziqishlari va o'zlarining istaklari o'rtasidagi farq bilan to'qnash kelishadi. Bu holatda qanday yo'l tutish kerakligi, odatda, ota-onalar uchun jumboq. Avvalambor, hayotga bo'lgan munosabatini tafakkur qilish uchun bolaga imkon berish zarur. Masalan, bolada g'ayritabiiy soch turmagi qi-lish, sirg'a taqish yoki tatuirovka qilish istagi borligini sezdingiz. Ota-onaga bu holat jamiyat orasida obro'sizlik keltiradi, aniqrog'i, muvaffaqiyatsizlik, bola tarbiya qila olmaslikning ifodasi sifatida qattiq ruhiy zarba beradi.

Lekin vaziyatni o'nglash uchun unga baqir-chaqir qilib "aql-dan ozganligini isbotlash" vaziyatga teskari ta'sir ko'rsatadi. U bilan suhbat qilish zarur. Bu vaziyatda undan bir narsani bilish talab etiladi. Uning bu xatti-harakatidan maqsadi o'zining g'ayritabiiy shaxsiyatini ifodalashmi yoki moda tufaylimi, shunga aniqlik kiritish zarur. Bu vaziyatda albatta bolaga bir narsani tushuntirish kerak: balog'atga yetgandan keyingi hayoti, istiqboli haqida tushuntirish va mustaqil hayotga kirgandan keyin istagan narsasini qi-lish mumkinligini uqtirish lozim (vaqt o'tgach uning ta'bi va fikri o'zgaradi). Ikkinchidan, uning ana shu g'ayritabi-iy istaklari yakka holdagi istakmi yoki jamiyat talabimi?

Mana shu tarzda suhbatda musbat va manfiy jihatlarni bola bilan birgalikda hisob-kitob qilish natija beradi.

Qattiq nazorat kinga ham yoqardi, ayniqsa, bu kimningdir kimdir ustidan mutlaq hokimiyati shaklida bo'lsa. Ota-onalarning o'smirlar ustidan mutlaq nazorati ular ongida yashirin norozilik kayfiyatini tug'diradi. Ayni vaqtda ota-onalar ham bolani cheklash, chegaralash va nazorat qilish zarurligini va nazoratning ham chek-chegarasi bo'lishini ham yaxshi tushunishlari kerak. Bolaning shaxsiyati ustida, ya'ni uning mustaqil shaxs bo'lib yetishishi ustida ishlash talab etiladi. U mustaqil shaxs bo'lib yetishishi uchun o'zi qaror qilishi talab etiladigan murakkab vaziyatda tafak-kur qilishi va ixtiyori bilan so'nggi so'zni o'zi aytishiga imkon yaratish zarur. Umuman, bola bilan ota-ona o'rtasidagi tarbiyaviy masalalar bugungi kundagi ijtimoiy taraqqiyotga mos ravishda talqin etilishi maqsadga muvofiq. Yoshlar bilan bog'liq muammolar haqida gapirganda nizolarga alohida to'xtalish lozim. Zero, aynan bolalik va o'smirlik davrida bo'lib o'tgan voqea-hodisalar insonning shaxsiyatini shakllantiradi va bir umr u bilan hamrohlik qiladi. Yoshlar bilan bog'liq shunday muammolar borki, ular aynan o'smirlik va bolalik davrida tarbiyada yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar, bolalar bilan izchil muloqot o'rnatmasdan an'anaviy tarbiya

usullaridan ko‘r-ko‘rona foydalanish oqibatida kelib chiqadi. Ustiga ustak, bolalar bog‘chasi, o‘rta maktablarda tarbiyada yo‘l qo‘yiladigan xatolar ham oiladagi xatolarning davomi tarzida bolalarning shaxsiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qiluvchi mutaxassislar bilishlari shart bo‘lgan muammolardan biri oiladagi avlodlar o‘rtasidagi nizolardir.

Har bir oilada vaqti-vaqti bilan nizolar chiqib turadi. Ularni hech bir oila chetlab o‘ta olmaydi. Ko‘pincha nizolar mayda-chuyda gap so‘zlar bilan tugab ketsada, aslida hal etilmagan muammolar asta-sekin to‘planib ehtirosli urush-janjallargacha borib yetadi. Ayni vaziyatda, uyda bolalarning ehtirosi kuchayib ketishi kuzatiladi va ular qaysarlik qilib, oila a‘zolarining asabiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan darajada “tomosha” ko‘rsatishlari mumkin.

Bolaning shaxsiyati aynan oilada shakllanishini unutmaslik kerak. Garchi bahs-munozaralarni to‘liq bartaraf etish mumkin bo‘lmasada, o‘zaro mutanosib xatti-ha-rakat bilan ularni kamaytirish va zararsizlantirish mumkin. Eng samarali ko‘nikma bu bolani “eshita bilish”, uni tushunish va uning o‘ziga xosligini anglashdan iborat. Bola bilan bo‘ladigan har qanday suhbatda u bilan tengdoshdek suhbat qilish zarur. Zero, u ota-onasi bilan tengdosh, eng yaqin do‘st sifatida har qanday sirlarini bo‘lishish, hissi-yotlarini ifodalash mumkinligini chuqur his qilgan holda suhbat qila olsin. Bu esa bolaning nafaqat tarbiyasi, balki uning muvaffaqiyatli ta‘lim olishini ham kafolatlaydigan muhim omildir. Oiladagi nizolarni hal qilish usullari asosan jamiyatning muayyan hujayrasi doirasida qanday janjal yuzaga kelganiga bog‘liq. Ota-ona munosabatlari va nikoh tushunchalari bolalarda bo‘lgan oiladagi nizolar juda salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ikki kishining fikrlari yoki istaklari bilan to‘qnashganda, natijada ular umumiy yo‘nalishni topishni istashganida, oiladagi nizolarni tabiiy jarayon deb biladi.

Har qanday nizoli vaziyatni osonlik bilan bartaraf etish mumkin. Ijtimoiy munosabatlar singari oilaviy munosabatlar ham abadiy mavzu bo‘lib, alohida e‘ti-bor talab etadi. Oilada avlodlar o‘rtasida mutanosiblik, uyg‘un munosabatlar hukmronlik qilishi, doimo bolalar va ota-onalarning zavqli kulgilari taralib turishi uchun bir nechta oddiy qoidalarga amal qilish talab qilinadi. Bola tarbiyasi uchun muhim bo‘lgan qoidalar to‘g‘risida hind donishmandi Svami Pradjmyanpadning fikrlariga murojaat etishni ma‘qul ko‘rdik. Barchada bo‘lgani kabi har bir kishida hissiyotlar bo‘ladi va ular ko‘pincha shaxsning ichki ehtirosi shaklida namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, bu kabi oiladagi nizolar oldini olish uchun oila ishonchli munosabatda bo‘lishi kerak. Agar hamkorlardan biri biror narsani tugatsa yoki uni boshqa bir sirdan saqlaydi, bu o‘z-o‘zidan munosabatlarda keskin atmosferani keltirib chiqarishi mumkin va buning oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning hajmi siz yashirilgan haqiqatdan ham qo‘rqinchli bo‘lishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak.

Muammoni hal qilish, g‘alaba qozonish yoki himoya qilmaslik maqsadida konstruktiv va xotirjamlik bilan olib boring. Uchinchi tomonlarni nizoga jalb qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ular mojaroning yanada kuchayishi uchun

katalizatorga aylanishi mumkin. Ajrashish bu nizoni yechimi bo'lib qolmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V., Akramova F., Xonqulova N. Mustahkam oila – mahalla tayanchi T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 58-60 b
2. G. B. Xasanova, N. B. O'. Xolmirzayev, and SH. N. O'. Ibrohimov, "Семья как социальный институт.
3. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Формирование научного мировоззрения студентов. In *Актуальные задачи педагогики* (pp. 184-186).
4. Kamolova, Sh. O', & Munarova, R. O'. (2010). Уровни совершенства личности. *Исследователь научный журнал.–Қозоғистон*, 5(49), 100-105.
4. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6).
5. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
6. Kamolova, S. (2022). Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyat xususiyatlarini shakllantirishning psixologik asoslari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(4).
7. Kamolova, S. (2022). Bilimli yoshlar, tarbiya ishi, tashkilot va psixologik asoslar. *Pedagogik-psixologik va zamonaviy ta'lim jurnali*, 2 (2).
8. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Формирование научного мировоззрения студентов. In *Актуальные задачи педагогики* (pp. 184-186).
8. Kamolova, Sh. O', & Munarova, R. O'. (2010). Уровни совершенства личности. *Исследователь научный журнал.–Қозоғистон*, 5(49), 100-105.